

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 07/13.05.2020. Yu.22.03 RAQAMLI  
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**TOSHEVA MAFTUNA ANVAR QIZI**

**AXLOQQA QARSHI JINOYATLARNING JINOYAT-HUQUQIY  
VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi;  
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Tosheva Maftuna Anvar qizi**

Axloqqa qarshi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar.....3

**Тошева Мафтунa Анвар кизи**

Уголовно-правовые и криминологические аспекты преступлений против нравственности.....25

**Tosheva Maftuna Anvar qizi**

Criminal and criminological aspects of crimes against morality.....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....53

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 07/13.05.2020. Yu.22.03 RAQAMLI  
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**TOSHEVA MAFTUNA ANVAR QIZI**

**AXLOQQA QARSHI JINOYATLARNING JINOYAT-HUQUQIY  
VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi;  
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**



**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Y u889 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash](http://www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash)) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abzalova Xurshida Mirziyatovna**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Davletmuratov Sultanmurat Rustemovich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi**  
huzuridagi Sudyalar oliy maktabi


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 24-aprel kuni soat 14:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; info@tsul.uz).


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1386 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48)


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 9-apreldagi 46-raqamli reestr bayonnomasi).



  
**A.X. Otajonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

  
**M.K. O'razaliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

  
**N.S. Salayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda bugungi kunda axloqqa qarshi jinoyatlar sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu o'z navbatida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, oilaviy munosabatlarning an'anaviy rolini yo'qotishi, pornografiyaga, xususan, bolalar pornografiyasiga bo'lgan qiziqishning keskin o'sishi, fohishalikning keng tarqalishi, madaniy merosga bepisand munosabat va uni oddiy, ammo qimmatli tovar sifatida ko'rish kabi omillar bu jinoyatlarning ko'payishiga zamin yaratmoqda. Har yili dunyo bo'yicha 7-36 % ayollar va 3-29 % erkaklar bolalik davrida jinsiy zo'ravonlikka duch kelmoqda. Milliy bedarak ketgan va jinsiy ekspluatatsiya qilingan bolalar markazi (NCMEC) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 21,7 milliondan ortiq bola pornografiya bilan bog'liq axborotlardan zarar ko'rmoqda. Bu esa, o'z navbatida, axloqqa qarshi jinoyatlarga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy choralarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Jahonda axloqqa qarshi jinoyatlarning oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni o'rganish hamda jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, axloqqa qarshi jinoyatlar, xususan, bolalarga nisbatan jinsiy tajovuz, pornografiya, qo'shmachilik va fohishaxona saqlash hamda shu kabi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralarini kuchaytirishga hamda bunday jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish yuzasidan muhim natijalarga erishilmoqda. Shunga qaramasdan, zamonaviy davr axloqqa qarshi jinoyatlar bilan bog'liq nazariy, amaliy va huquqiy masalalarni chuqur tahlil qilishni, ushbu sohadagi mavjud muammolarni aniqlab, ularga yechim topishni, shuningdek, bunday jinoyatlarning oldini olish va javobgarlik choralarini tartibga soluvchi qonun normalarini ilmiy tadqiq etish lozimligini talab etadi.

Mamlakatimizda axloqqa qarshi jinoyatlarga qarshi kurashish, bunday jinoyatlarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlarni belgilash borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, axloqqa qarshi jinoyatlar ga oid normalarni tartibga solish, ushbu jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish va jazo tizimini takomillashtirish orqali jamiyat axloqiy qadriyatlarini islanchli himoya qilishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi<sup>1</sup>da axloqqa qarshi jinoyatlar bilan bog'liq normalarni unifikatsiya qilish, ushbu sohadagi qonunchilikni zamonaviy talablarga moslashtirish hamda fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha asosiy yo'nalish va vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar axloqqa qarshi jinoyatlarning jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soluvchi jihatlarni tahlil qilish, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirish va ushbu sohadagi muammolarni kompleks tarzda o'rganishni taqozo etadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi. Qonun hujjatlarima'lumotlarimilliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-dekabrda O'RQ-190-son "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli fakultativ protokolga (Nyu-York, 2000-yil 25-may) qo'shilishi haqida", 2008-yil 7-yanvardagi O'RQ-139-son "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", 2017-yil 8-sentabrda O'RQ-444-son "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida", 2023-yil 11-aprelda O'RQ-829-son "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida", 2020-yil 24-noyabrda O'RQ-649-son "Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-mayda PQ-3723-son "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini ma'lum darajada ta'minlashga ushbu tadqiqot ishi xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi.** Axloqqa qarshi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari mamlakatimizda tadqiq etilmagan. Biroq, axloqqa qarshi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarning ayrim masalalariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, M.X.Rustambayev, Q.R.Abdurasulova, S.S.Niyozova, Q.P.Payzulloev, Sh.A.Ganiyev, A.A.Otajonov, M.Sh.Najimov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Jumladan, S.S.Niyozovanning "Axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari" nomli monografiyasida (2019), 2016-yilda Sh.A.Ganiyev axloqqa qarshi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik masalalarini, Q.P.Payzullaev 2007-yilda "Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligini muhofaza qilish muammolari" yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish yozilgan ilmiy ishlarda, shuningdek, M.Sh.Najimov "Oilaga va yoshlarga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish" nomli monografiyasida axloqqa qarshi jinoyatlarning ayrim masalalari yoritilgan.

MDH davlatlari olimlari R.V.Torosyan, E.X.Nadiseva, R.B.Oskin, E.A.Starkov, E.V.Millerov, R.D.Sharapov, A.E.Shalagin, A.M.Gerasimov, O.V.Beschastnova, O.A.Petryanina, E.V.Bogatova, V.S.Miroshnichenko, O.V.Saratova, A.S.Shokel, D.V.Shmikov, O.A.Bulgakova, M.V.Gusarova, L.R.Klebanov, N.N.Syatkin, N.M.Parshin, V.G.Romanov, A.A.Bimbinov, Yu.A.Ostrovetskaya, A.S.Valentonis, E.A.Aliyeva va boshqalarning tadqiqot ishlari axloqqa qarshi jinoyatlarning u yoki bu jihatlari bag'ishlangan.

Xorijiy davlatlarda B.Carpenter, L.Cameron, J.Seager, Joanna Ashraf, Kamila Junik, Agnieszka Nitza-Makowska va boshqalarning ishlarida axloqqa qarshi jinoyatlar haqida bayon qilingan<sup>2</sup>.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari" ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** axloqqa qarshi jinoyatlarning ilmiy, nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganish, shuningdek, aniqlangan muammolarning huquqiy yechimlarini topish maqsadida ilmiy xulosalar ishlab chiqish, mazkur jinoyatlarga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik choralari takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni shakllantirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

axloqqa qarshi jinoyatlar tushunchasini va tavsifini aniqlash;

axloqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarining rivojlanish tarixi va hozirgi holatini retrospektiv o'rganish;

ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida axloqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalasini o'rganish, ularning ijobiy tajribasini milliy qonunchilikka implementatsiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

axloqqa qarshi jinoyatlarni yuridik tahlil qilish, ularni obyektiv belgilarini o'rganish;

axloqqa qarshi jinoyatlarni subyektiv belgilarini tahlil qilish;

axloqqa qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ayrim masalalarini o'rganish;

axloqqa qarshi jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchi shaxsiga kriminologik tavsif berish;

axloqqa qarshi xususiyatiga ega jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash;

axloqqa qarshi jinoyatlarni oldini olish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida axloqqa qarshi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga oid ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** axloqqa qarshi jinoyatlar sodir etilishi natijasida yuzaga keladigan jinoyat-huquqiy va kriminologik munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, bu jinoyatlarning profilaktikasi va sud-tergov amaliyoti, ushbu muammoga oid ilmiy asarlar, statistik ma'lumotlar va xorijiy davlatlar qonunchiligi normalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, statistik usullaridan, shuningdek sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jinoyat ishlari materiallarini o'rganish va boshqa metodlardan foydalanilgan.

<sup>2</sup> Ushbu mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismida berilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish harakatlarini ilgari Jinoyat kodeksining nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish kabi jinoyatlarni sodir etgan va "sudlanganligi tugallanmagan yoki olib tashlanmagan" shaxs tomonidan sodir etilishiga doir tushunchani kiritish lozimligi asoslantirilgan;

o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatni bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi og'irlashtiruvchi holat ekanligi hamda JK ning 128-moddasi 3-qismi "v" bandini "bir guruh shaxslar tomonidan" degan birikmani kiritilishi lozimligi asoslantirilgan;

o'n olti yoshga to'lmagan yaqin qarindoshiga nisbatan bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatning og'irlashtiruvchi holat ekanligi hamda mazkur harakatni JK ning 128-moddasi 3-qismi "g" bandiga kiritish kerakligi asoslantirilgan;

o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan jinsiy aloqa yoki uyatsiz-buziq harakatlar sodir etganlik, voyaga yetmaganlar ishtirokida pornografik mahsulot tayyorlash yoki tarqatish, shuningdek qo'shmachilik yoki fohishaxona tashkil etganlik uchun hukm qilingan shaxslarning ta'lim, tarbiya va bolalar bilan bevosita ishlashni talab qiluvchi faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlanishi lozimligi asoslantirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

axloqqa qarshi jinoyatlar odatda jamiyatdagi ijtimoiy axloqiy normalarni buzishga qaratilganligi sababli Jinoyat kodeksida "Axloqqa qarshi jinoyatlar" bobini alohida ajratish va ushbu jinoyatlar tarkibiga "O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish" (JK 128<sup>1</sup>-m.), "Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish" (JK 130-m.), "Qo'shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash" (JK 131-m.), "Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish" (JK 133-m.), "Qabrni va murdani tahqirlash" (JK 134-m.) hamda "Hayvonlarga shavqatsiz munosabatda bo'lish" (JK 202<sup>1</sup>-m.) jinoyatlarini kiritilishi asoslangan;

qo'shmachilik yoki fohishaxona tashkil qilish jinoyati amaliyotda xizmat mavqeidan foydalangan holda; o'quv, o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilayotganligi sababli, mazkur jinoyatni 3-qismini og'irlashtiruvchi sifatida "a) xizmat mavqeidan foydalangan holda, b) o'quv, o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilgan bo'lsa" holatlarni kiritilishi asoslangan;

qo'shmachilik yoki fohishaxona tashkil qilish holatlari nafaqat begonalar, balki moddiy yoki xizmat jihatidan o'ziga qaram bo'lgan shaxslar, jumladan, farzandlari va nevaralarini jalb etish orqali ham amalga oshirilishi mumkinligi sababli JKning 131-moddasiga 4-qismiga og'irlashtiruvchi holat sifatida "moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan aybdorga qaram bo'lgan shaxsga nisbatan" qo'shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash qilmishini kiritilishi asoslangan;

besoqolbozlik (JK 120-m.) jinoyati bevosita jinsiy erkinlikka tajovuz qilmasligi, aksincha, axloqiy me'yorlarni buzishga qaratilganligi sababli, mazkur qilmishni JKning "Axloqqa qarshi jinoyatlar" bobiga o'tkazish bu jinoyat axloqqa qarshi jinoyatlar toifasida ko'rib chiqilishi asoslangan;

JKning 134-moddasi quyidagicha "Qabrni va murdani tahqirlash" deb tahrirlanishi hamda ushbu moddaning 2-qismi og'irlashtiruvchi holatlari "bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib", "milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat yoxud nafrat zamirida" sodir etilishi asoslangan;

"Atamalarning huquqiy ma'nosi" bo'limiga "uyatsiz-buzuq harakatlar" "uyatsiz-buzuq harakatlar – har qanday jinsiy mazmundagi, jinsiy aloqadan tashqari, jabrlanuvchining jinsiy xohishini uyg'otadigan, uni noqulay hissiy holatga soladigan hamda aybdorning jinsiy ehtiyojini qondirishga qaratilgan jismoniy va (yoki) intellektual harakatlar" tushunchasining kiritish zarurligi asoslab berildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslangan, 100 dan ortiq sud hujjatlari (hukmlar va ajrimlar), 200 dan ortiq nazariyotchi olimlar va amaliyotchi xodimlar, jumladan surishtiruvchi, tergovchi, sud, advokat va professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, shuningdek olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar kelgusida ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, jinoyat qonunining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda hamda "Jinoyat huquqi" hamda "Kriminologiya" fanlarini nazariy jihatdan boyitishda foydalanish imkoniyatini beradi. Tadqiqotning nazariy tomonlariga asoslanish kelajakda jinoyat huquqi sohasidagi qonun yaratuvchilikni yaxshilash, axloqqa qarshi jinoyatlar bo'yicha qonunni qo'llash amaliyotida bir xillikni ta'minlash (unifikatsiyalash), shuningdek, ushbu jinoyatga qarshi kurashning samaradorligini oshirishga doir yangi ilmiy tadqiqotlarni olib borish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa jinoyat qonunchiligini rivojlantirish, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, axloqqa qarshi jinoyatlarga qarshi kurashning samarali va ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish hamda yangi tahrirda ishlab chiqilayotgan Jinoyat kodeksini takomillashtirishga hissa qo'shishdan iboratdir.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Axloqqa qarshi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq etish natijalari asosida:

o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish harakatlarini ilgari Jinoyat kodeksining nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish kabi jinoyatlarni sodir etgan va "sudlanganligi tugallanmagan yoki olib tashlanmagan" shaxs tomonidan sodir etilishiga doir tushunchani kiritish haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi loyihasining 128-moddasi 3-qismi "b"

bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 22-avgustdagi 27/2-205-24-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni qabul qilinishi sudlanganlik tugallanmagan va olib tashlanmaganlik davrida jinoyatchi shaxsning ijtimoiy xavfliligini saqlab qolishini inobatga olib, takroriy jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan bunday shaxslarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi;

bir guruh shaxslar tomonidan o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatni sodir etilishi og'irlashtiruvchi holat ekanligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi loyihasining 128-moddasi 3-qismi "v" bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 22-avgustdagi 27/2-205-24-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif bir guruh shaxslar tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarni og'irroq baholash va adolatli jazolashga xizmat qiladi;

o'n olti yoshga to'lmagan yaqin qarindoshiga nisbatan bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatning og'irlashtiruvchi holat ekanligi hamda mazkur harakatni JKning 128-moddasi 3-qismi "g" bandiga kiritish to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi loyihasining 128-moddasi 3-qismi "g" bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 22-avgustdagi 27/2-205-24-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif jabrlanuvchilarni himoya qilishni kuchaytirish va jinoyatchilarga nisbatan adolatli javobgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi;

o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan jinsiy aloqa yoki uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etganlik, voyaga yetmaganlar ishtirokida pornografik mahsulot tayyorlash yoki tarqatish, shuningdek qo'shmachilik yoki fohishaxona tashkil etganlik uchun hukm qilingan shaxslarning ta'lim, tarbiya va bolalar bilan bevosita ishlashni talab qiluvchi faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlanishiga oid takliflar 2008-yil 7-yanvardagi O'RQ 139-son "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" Qonunning 10-moddasi oltinchi va yettinchi qismlar bilan to'ldirilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 8-oktabrdagi №02/q-08-57-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif voyaga yetmagan shaxslarning huquq va xavfsizligini ta'minlashga, ularni axloqiy va jinsiy tahdidlardan himoya qilishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari hamda davra suhbatlarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, jumladan, 8 ta ilmiy maqola (shundan 2 tasi xorijiy nashrlarda) va 4 ta tezis chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Axloqqa qarshi jinoyatlarning umumiy tavsifi**" deb nomlanib, unda axloqqa qarshi jinoyatlarning rivojlanish tarixi, axloqqa qarshi jinoyatlarlarning tushunchasi va ularning tavsifi hamda mazkur jinoyatlar uchun xorijiy davlatlarda axloqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari tahlil qilingan.

Ushbu bobda axloq tushunchasi, uning rivojlanishi va jamiyatdagi o'rni muhokama qilinadi. Axloq insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin tutib, kishilarning o'zaro munosabatlarida, oilaga va jamiyatga bo'lgan xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Dinning axloq shakllanishidagi roli katta bo'lib, shaxsning ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlikni ajratishi axloqiy kamolotga erishishda muhim hisoblanadi. Muallifning asosiy maqsadi axloqqa qarshi jinoyatlarning tarixiy rivojlanishini va jamiyatning o'zgarishi bilan ularning tartibga solinishi ham o'zgarib borganligini tushuntirishdir. Shu bilan birga, O'zbekistonning amaldagi qonunchiligi ham davr talablariga mos ravishda muntazam ravishda yangilanib borayotgani ta'kidlaydi.

O'zbekiston tarixida axloqqa qarshi jinoyatlar, jumladan, jinsiy zo'ravonlik, hayvonlarga nisbatan shavqatsizlik va qabrni tahqirlash kabi jinoyatlar haqida turli davrlarda qabul qilingan qonunlar orqali tartibga solingan. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston hududida axloqqa qarshi jinoyatlarning rivojlanish tarixini quyidagicha davrlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Qadimgi davr – VIII asrgacha (Avesto qoidalari tatbiq etilgan davr): Bu davrda O'zbekiston hududida Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" qoidalari amalda bo'lgan. Avestoga ko'ra, axloqqa qarshi jinoyatlar kechirilmaydigan jinoyatlar sanalgan. Ayniqsa, zinokorlik va bachchavozlik kabi jinoyatlar o'lim jazosiga loyiq deb topilgan. Hayvonlarga, ayniqsa, sigir va itlarga zarar yetkazish qattiq jazolangan, hayvonlarga shavqatsiz munosabat uchun qamchilash va boshqa qattiq jazolar belgilangan.

2. VIII asrdan 1926-yilgacha (Shariat qoidalari asosida): VIII asrda arablar O'zbekiston hududiga islomni olib kirishi bilan shariat qonunlari amalda bo'la boshladi. Shariatga ko'ra, axloqqa qarshi jinoyatlar qatoriga zino, bachchavozlik, fohishalik, pornografiyani tarqatish, hayvonlarga shavqatsizlik kirgan. Bu jinoyatlar Qur'on va Sunnat asosida belgilangan hudud, kisas va taazir jazolari orqali jazolangan. Zino uchun guvohlar talab qilingan va toshbo'ron qilish jazosi qo'llanilgan.

3. 1926-yildan 1994-yilgacha bo'lgan davr (Jinoyat qonunchiligining kodifikatsiya qilinishi): O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi 1926-yilda qabul qilindi va bu davrda axloqqa qarshi jinoyatlar turli moddalarda belgilandi. Voyaga yetmaganlar bilan jinsiy aloqada bo'lish, jinsiy zo'rovonlik, fohishalik va qo'shmachilik bilan shug'ullanish jinoyatlar deb hisoblangan. Pornografik materiallar tarqatish hamda hayvonlarga shavqatsizlik uchun jazo choralari joriy qilingan. Sovet davrida axloqqa qarshi jinoyatlar davlat va jamoat qadriyatlarini asosida tartibga solingan.

4. 1994-yildan hozirga qadar (Mustaqil davlatning Jinoyat kodeksi qabul qilinishi): Mustaqillikdan so'ng 1994-yilgi Jinoyat kodeksi qabul qilindi va unda axloqqa qarshi jinoyatlar tarkibi kengaytirildi. Voyaga yetmaganlar bilan jinsiy aloqalar, pornografik materiallar tayyorlash va tarqatish, moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish, qabrni tahqirlash kabi jinoyatlar kiritilib, mazkur qilmishlar uchun yangi jazo choralari belgilandi. Keyingi yillarda qonunchilik takomillashtirilib, yangi jinoyatlar, masalan, inson a'zolari va to'qimalarni savdosi, hayvonlarga shavqatsiz munosabatda bo'lish kabi jinoyatlar bilan to'ldirildi.

Muallif axloqqa qarshi jinoyatlarning tushunchasi va ularning tavsifi va O'zbekiston jinoyat qonunchiligidagi o'rni haqida keng ma'lumot beradi. Unda axloqqa qarshi jinoyatlar jamiyatning axloqiy me'yorlariga va qadriyatlariga qarshi qaratilgan har qanday harakatlar sifatida tushuntiriladi. Ushbu jinoyatlar jamiyatning madaniy, ma'naviy hayotiga zarar yetkazib, uning axloqiy tamoyillariga tahdid soladi va ko'pincha huquqiy jazo choralariga olib keladi.

Dissertatsiyada ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida axloqqa qarshi jinoyatlar V bobda joy olgan. Biroq, bu bobda turli xil jinoyatlar keltirilgani va ularning barchasi bevosita axloqiy qadriyatlarga bog'liq emasligi aytiladi. Muallif shuni alohida ta'kidlaydiki, JKning V-bobining muhim jihati shundaki, mazkur bob turli xil ijtimoiy qadriyatlarga tajovuz qiluvchi jinoyatlar haqidagi normalarni birlashtiradi.

Muallif O'zbekiston Jinoyat kodeksining V bobi turli jinoyatlarni birlashtirgani, jinsiy erkinlik va daxlsizlikka qarshi jinoyatlar bilan axloqqa qarshi jinoyatlar orasida farq qilish lozimligi ta'kidlaydi. Masalan, qo'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash, pornografik mahsulotlarni tarqatish, qabrni tahqirlash, hayvonlarga shavqatsiz munosabatda bo'lish kabi jinoyatlar axloqqa qarshi jinoyatlar sifatida qaralgan bo'lsa-da, biroq ba'zilar voyaga yetmaganlar bilan jinsiy aloqa qilish, ularga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish jinoyatlarning jinsiy erkinlik va daxlsizlikka nisbatan tahdid sifatida qayta tasniflanishi zarurligi bildirilgan.

Dissertant O'zbekiston Jinoyat kodeksida axloqqa qarshi jinoyatlar bobining alohida ajratilishi va kengaytirilishi lozimligi ta'kidlab, bu orqali axloqqa qarshi jinoyatlar va boshqa turdagi jinoyatlar orasidagi farq aniqroq belgilanishi, jazo choralari yanada samarali bo'lishi kerakligi qayd etiladi. Shu jumladan, hayvonlarga shavqatsiz munosabatda bo'lish jinoyatini ham axloqqa qarshi jinoyatlar sirasiga kiritish taklif qilinadi.

Tadqiqot ishida muallif axloqqa qarshi jinoyatlarning xususiyatlarini quyidagicha yoritadi: 1. *Axloqqa qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavfi*: Axloqqa qarshi jinoyatlar jamiyatning axloqiy me'yorlari va qadriyatlariga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy xavfi shaxsning o'ziga emas, balki jamiyatning ma'naviy va madaniy asoslariga zarar yetkazishda ko'rinadi. Muallif ta'kidlaganidek, bunday jinoyatlar nafaqat shaxsiy manfaatlariga tajovuz qiladi, balki butun jamiyatning axloqiy qadriyatlari va yurish-turish qoidalariga ham tahdid soladi; 2. *Jinoyatlarning bevosita obyektlari*: Muallif axloqqa qarshi jinoyatlarning obyektini jamiyatning axloqiy asoslari, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirish asosida boshqariladigan xulq-atvor me'yorlari deb belgilaydi; 3. *Axloqiy me'yorlarning tarixiy o'zgaruvchanligi*: Muallif axloqiy me'yorlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib, turli davrlar va jamiyatlarda turlicha talqin qilinganini yoritadi; 5. *Din va axloq o'rtasidagi bog'liqlik*: Muallif axloqqa qarshi jinoyatlarning ko'plab hollarda din bilan bog'liq ekanligini yoritadi. Diniy ta'limotlar axloqiy me'yorlar va jinoyatlarning shakllanishida katta rol o'ynagan, shuningdek, ularning belgilanishiga ta'sir qilgan.

Tadqiqot davomida tadqiqotchi axloqqa qarshi jinoyatlar haqida xalqaro va xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilgan holda yoritadi. Muallif bir necha muhim jihatlarga urg'u beradi:

Muallif aksariyat davlatlarda axloqqa qarshi jinoyatlar turli nomlar va boblarda joylashtirilganligini ta'kidlaydi. Misol uchun, Fransiyada axloqqa qarshi jinoyatlar yagona bobda joylashtirilmagan, balki boshqa turdagi jinoyatlar bilan birga turli moddalarga taqsimlangan. Ukrainada esa axloqqa qarshi jinoyatlar "Jamoat tartibi va axloqqa qarshi jinoyatlar" bobida jamlangan. Rossiya va Qozog'iston jinoyat kodekslarida axloqqa qarshi jinoyatlar "Aholi sog'ligi va ijtimoiy axloqqa qarshi jinoyatlar" bobida o'z o'rnini topgan. Vengriya qonunchiligida esa axloqqa qarshi jinoyatlar bo'limida fohishalik, qarindoshlar o'rtasidagi jinsiy aloqa va boshqa axloqqa zid qilmishlar ham keltirilganini yoritadi.

Muallif xorijiy davlatlarning axloqqa qarshi jinoyatlar bo'yicha qonunchiligini o'rganishning ahamiyatini qayd etib, bunday tahlil O'zbekiston jinoyat qonunchiligini takomillashtirish va unda mavjud bo'lgan kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga imkon berishini ta'kidlaydi. Muallif, shuningdek, axloqqa qarshi jinoyatlar masalasida xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanish O'zbekiston Respublikasining jinoiy siyosatini yanada rivojlantirishga ko'maklashishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Axloqqa qarshi jinoyatlarning yuridik tahlili va kvalifikatsiya qilish masalalari**" deb nomlanib, ushbu bob axloqqa qarshi jinoyatlarning obyektiv belgilari, subyektiv belgilari hamda mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ayrim masalalari yoritilgan.

Mazkur bobda axloqqa qarshi jinoyatlar, ularning obyektiv belgilari va huquqiy jihatlari keng ko'lamda tahlil qilingan. Ushbu jinoyatlar jamiyatda mavjud axloqiy tamoyillar va normalar buzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, turli ijtimoiy munosabatlar va huquqiy himoya qoidalarini tartibga soladi.

Muallif axloqqa qarshi jinoyatlarning obyektiv belgilari haqida gapirar ekan, ularni guruhlashni taklif qiladi va uchta asosiy guruhga ajratadi:

*Jinsiy daxlsizlik va erkinlikka qarshi jinoyatlar* – bular o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslar bilan jinsiy aloqa qilish, o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish, o‘n olti yoshga yetmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish kabi jinoyatlar;

*Jinsiy sohadagi axloqiy tamoyillarga qarshi jinoyatlar* – besoqolbozlik, pornografik mahsulotlarni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish hamda qo‘shmachilik qilish va fohishaxona saqlash kabi qilmishlar.

*Boshqa axloqqa qarshi jinoyatlar* – moddiy madaniy meros obyektlarini shikastlash, qabrni tahqirlash, hayvonlarga shavqatsiz munosabatda bo‘lish jinoyatlari.

1. Jinsiy daxlsizlik va erkinlikka qarshi jinoyatlar. Muallif jinsiy daxlsizlikka tajovuz qiluvchi jinoyatlarni tahlil qilishda Jinoyat kodeksining bir qator moddalari – 128 (o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa), 128<sup>1</sup> (o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish) va 129 (o‘n olti yoshga yetmagan shaxsga uyatsiz-buzuq harakatlar) moddalarida keltirilgan qilmishlarni ko‘rib chiqadi. Bu jinoyatlarning *bevosita obyekt*i shaxsning jinsiy daxlsizligi va huquqi bo‘lib, jabrlanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini himoya qilishga qaratilgan. Muallif “jinsiy daxlsizlik” tushunchasini kengaytirib tushuntiradi. Jinsiy daxlsizlik – bu shaxsning jinsiy sohaga oid huquqlari va daxlsizligiga tajovuz qilmaslikni tushuntiradi. Bu tushuncha, ayniqsa, voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llanadi, chunki ular jismoniy va ruhiy jihatdan jinsiy aloqaga tayyor emas deb hisoblanadi. Voyaga yetmagan shaxslar bilan har qanday jinsiy aloqa, ularning roziligidan qat‘iy nazar, jinoyat hisoblanadi, chunki bu ularning jismoniy va axloqiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir qilishini asoslab beradi.

2. Jinsiy sohada axloqiy tamoyillarga qarshi jinoyatlar. Bu guruhdagi jinoyatlar jinsiy sohada axloqqa qarshi qilmishlarni qamrab oladi. Bu guruhda besoqolbozlik (JK 120-m.); pornografik materiallarni tayyorlash, tarqatish va reklama qilish (JK 130-m.) hamda qo‘shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash jinoyatlari (JK 131-m.) jinoyatlar ko‘rib chiqilgan. Muallif pornografiya tushunchasini keng yoritadi va uni erotikadan farqlaydi. Pornografiya ijtimoiy xavfli deb hisoblanadi, chunki u jinsiy axloqqa tajovuz qilishi va yoshlarning axloqiy rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin.

Muallif bu jinoyatlarning jamiyatga bo‘lgan zararini tushuntirar ekan, ular jamiyat axloqini va jamoat tartibini buzishini alohida ta‘kidlaydi. Ayniqsa, bu jinoyatlar odamlarni ekspluatatsiya qilish va jinsiy xizmatlarni tijoratlashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, jamoat axloqiga tajovuz qilgani bois, mazkur jinoyatlarning *bevosita obyekt*i – jamoat odob-axloqi, yoshlarning normal aqliy rivojlanishini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Shunindek, muallif mazkur jinoyatlarning *qo‘shimcha bevosita obyekt*i – insonlarning sog‘lig‘ini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar deb tushuntiradi. Mazkur jinoyatlar nafaqat axloqiy tamoyillarni buzishini, balki insonlarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga ham zarar yetkazishini nazarda tutadi.

3. Boshqa axloqqa qarshi jinoyatlar. Muallif bu guruhdagi jinoyatlar qatoriga moddiy madaniy meros obyektlariga zarar yetkazish (JK 132-m.), qabrlarni tahqirlash (JK 134-m.) hamda hayvonlarga shavqatsiz munosabatda bo'lish (JK 202<sup>1</sup>-m.) kabi qilmishlarni kiritadi. Ushbu jinoyatlarning *bevosita obyekti* – jamiyatning normal rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Moddiy madaniy meros obyektlariga zarar yetkazish – bu jinoyatlar milliy va madaniy qadriyatlarini yo'q qilishga qaratilgan qilmishlar sifatida ko'rib chiqilgan. Muallif madaniy meros obyektlarining tarixiy ahamiyatini va bunday obyektlarga zarar yetkazishning ijtimoiy xavfliligini ta'kidlaydi. Moddiy madaniy meros obyektlari – xalqning ajralmas boyligi va tarixiy guvohlari bo'lib, ularga zarar yetkazish milliy o'zlikni yo'qotishga sabab bo'lishi mumkin deb tushuntiradi.

Qabrni tahqirlash – bu jinoyatlar marhumning qadr-qimmatini va jamiyatning dafn etish urf-odatlarini buzish sifatida baholanadi. Muallif qabrni tahqirlash jinoyatining qanchalik ruhiy va axloqiy zarar yetkazishini, bu holatning marhum yaqinlariga bo'lgan ta'sirini va bu qilmishning jamoat axloqiga zid ekanligini tushuntiradi.

Hayvonlarga shavqatsiz munosabatda bo'lish – muallif bu jinoyatning ijtimoiy va axloqiy jihatlarni yoritib, hayvonlarni qiynoqqa solish yoki ularga zarar yetkazish jamoat axloqi va insonning ma'naviy rivojlanishiga qarshi qilmish hisoblanishini tushuntiradi. Ushbu jinoyat, ayniqsa, yoshlar va bolalarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va shavqatsizlikni normal hol sifatida qabul qilish xavfini oshirishi mumkin.

Muallif mazkur bobda axloqqa qarshi jinoyatlarning subyektiv belgilarini va ularning huquqiy baholashdagi ahamiyatini keng yoritib beradi. Muallif jinoyatni faqat tashqi harakatlar orqali emas, balki jinoyatni sodir etgan shaxsning ichki psixologik holati va niyatlariga asoslangan holda to'g'ri baholash zarurligini ta'kidlaydi. Muallifning ta'kidlashicha, jinoyat subyektiv tomondan shaxsning o'z harakatlarini anglash va ularga bo'lgan munosabati orqali baholanadi. Jinoyatchi o'z harakatlari oqibatlarini anglab turib, o'z maqsadiga erishish uchun harakat qiladi.

Muallif, shuningdek, qasd tushunchasini muhokama qilib, axloqqa qarshi jinoyatlarning ko'pchiligi to'g'ri qasd bilan sodir etilishiga urg'u beradi. Bu degani, jinoyatchi o'z harakatlarining oqibatlarini tushunib, ularni amalga oshirishga qasddan qaror qiladi. Masalan, pornografik materiallarni tarqatish yoki qo'shmachilik qilish kabi jinoyatlarda jinoyatchi harakatining natijasini biladi va uni maqsad qiladi. Biroq ba'zi jinoyatlar, masalan, madaniy meros obyektlariga zarar yetkazish jinoyatlari ehtiyotsizlik natijasida ham sodir etilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Motivlar va maqsadlar ham subyektiv tomonga taalluqli bo'lib, bu jihatlarda jinoyat sodir etilish sabablarini aniqlashda va jinoyat javobgarlikni belgilashda katta ahamiyat kasb etadi. Axloqqa qarshi jinoyatlardan Jinoyat kodeksining 128, 128<sup>1</sup>, 129, 132, 133, 133<sup>1</sup>, 133<sup>2</sup>, 134-moddalarida mustahkamlangan jinoyatlarning jinoyat sodir etish motivi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Axloqqa qarshi jinoyatlarning subyekti shaxsning jinoyat javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan huquqiy shaxs sifatida belgilanishini anglatadi. Subyekt quyidagi belgilar bilan aniqlanadi: 1. *Aqli raso bo'lish*: Jinoyat sodir etgan shaxs o'z

harakatlarini anglashi hamda to'g'ri baholay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. 2. *Yosh*: Aksariyat axloqqa qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik yoshi 16 yoshdan boshlanadi, ba'zi hollarda esa, maxsus subyekt yoshi masalan, JKning 128'-moddasi (o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish) jinoyatining subyektini 18 yosh belgilanganini keltirish mumkin.

Tadqiqotchi dissertatsiyada JK 118-119 va 128-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka qarshi sodir etilgan qilmishlar bo'lib, ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun jinsiy aloqa yoki jinsiy ehtiyojni qondirishning qanday shaklda amalga oshirilganligi muhimdir deb tushuntiradi.

JK 128-moddasi jinsiy aloqa yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishning zo'rliksiz amalga oshirilgan holatlariga nisbatan qo'llaniladi. Bu modda faqat o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni qondirishda jabrlanuvchining roziligi bo'lgan holatlarni qamrab oladi. Mazkur qilmishda zo'rlik yoki tahdid bo'lmaydi, ammo jabrlanuvchi o'z roziligini bildirgan bo'lsa-da, ushbu shaxs jinsiy aloqaga kirishish mumkin bo'lgan yoshga yetmaganligi sababli qilmish jinoyat deb hisoblanadi.

Uyatsiz-buzuq harakatlar zo'rliksiz sodir etilgan bo'lsa, qilmish JKning 129-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Muallif ushbu qilmishni jinsiy aloqaga kirishmasdan, faqat jabrlanuvchiga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etilgan holatlarni qamrab oladi. Agar qilmish jinsiy aloqa bilan yakunlangan holatda harakat 128-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi deb tushuntiradi. Agar qilmishda zo'rlik yoki tahdid mavjud bo'lsa, qilmish JKning 129-moddasining tegishli qismi bilan baholanadi. Taqdidotchi shuni ta'kidlaydiki, agar aybdor jamoat joyida yoki boshqa joyda o'n olti yoshga to'lmagan shaxsiga uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etsa, bu qilmish JK 129-moddasi va 277-moddalari bilan birga kvalifikatsiya qilinishini tushuntiradi.

Pornografik mahsulotlarni tayyorlash, tarqatish yoki reklama qilish JKning 130-moddasi bilan baholanadi. Muallifning ta'kidlashicha, pornografik mahsulotlarni o'z ehtiyojlari uchun tayyorlash jinoyat hisoblanmaydi, agar bu mahsulotlar omma uchun namoyish etish, tarqatish yoki reklama qilishni maqsad qilgan bo'lsa, qilmish jinoyat hisoblanadi.

JKning 130-moddasining 3-qismiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxs ishtirokida pornografik materiallar tayyorlangan yoki tarqatilgan bo'lsa, bu qilmish og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi va JKning tegishli bandleriga asoslanib baholanadi.

Qo'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash (JK 131-m.) – jinoyatlar jinsiy xizmatlarni tijoratlashtirish va odamlarni fohishalik bilan shug'ullanishga qaratilgan harakatdir. Muallif shuni alohida ta'kidlaydiki, mazkur qilmish g'arazli yoki past niyatlar bilan sodir etiladi. Masalan, shaxs moddiy foyda olish yoki o'z manfaatlarini ko'zlab fohishalik faoliyatiga jalb qilsa, uning qilmishi JK 131-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish yoki ularga zarar yetkazish (JK 132-m.) – jinoyati moddiy madaniy meros obyektlariga zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lib, uni boshqa jinoyatlardan farqlashda asosiy diqqat obyektning o'zi,

ya'ni davlat ro'yxatiga olingan tarixiy va madaniy obyektlarga qaratilganini tushuntiradi.

Muallif bu jinoyatni bezorilik va shaxsiy mulkni qasddan shikast yetkazish jinoyatlaridan farqlash kerakligini ta'kidlaydi. Agar jinoyat davlat ro'yxatiga olingan tarixiy obyektlarga qaratilgan bo'lsa, bu qilmish JKning 132-moddasi bilan baholanadi, lekin agar bu boshqa mulkka qasddan zarar yetkazish bo'lsa, qilmish JKning boshqa moddalarini bilan baholanadi.

Inson organlari va to'qimalarining oldi-sotdisi bo'yicha jinoyatlar JK 133-moddasi bilan bog'liq holda baholanadi. Muallif JKning 133, 133<sup>1</sup>, va 133<sup>2</sup>-moddalarini o'rtasidagi farqlarga e'tibor qaratib, bu jinoyatlarni boshqa moddalardan to'g'ri farqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Muallif har bir jinoyatni baholashda og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olish kerakligini ta'kidlaydi. Masalan, jinoyat takroran sodir etilgan yoki xavfli retsidivist tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, bu qilmish tegishli moddalarning og'irlashtiruvchi qismlari bilan baholanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Axloqqa qarshi jinoyatlarning kriminologik tavsifi”** deb nomlanib, unda axloqqa qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi, axloqqa qarshi jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlari hamda mazkur jinoyatlarning oldini olish masalalari yoritilgan.

Mazkur bobda muallif axloqqa qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi haqida keng tahlil qiladi. Dissertatsiya, asosan, jinoyatchining shaxsiyatini, ularning jinoyatga olib keluvchi motivlari, shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarini, shuningdek, jinsiy, axloqiy va psixologik omillarni chuqurroq yoritadi.

Muallif jinoyatchi shaxsini tahlil qilishning muhimligini ta'kidlaydi. Kriminologiya nuqtai nazaridan “jinoyatchi shaxs” tushunchasi turli omillarni o'z ichiga oladi, shu jumladan shaxsning sotsial-biologik va psixologik tomonlarini. Jinoyatchi shaxsi jamiyatdagi axloqiy va etika me'yorlariga zid bo'lgan qilmishlarni sodir etgan shaxs sifatida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, tadqiqotchi jinoyatchilarni yosh jihatidan tavsiflaydi va har bir yosh guruhining jinoyatga moyilligi va jinoyat sodir etish sabablari haqida so'z yuritadi.

*O'smirlar (15-17 yosh):* o'smirlar ko'pincha o'yin-kulgi yoki atrof-muhit ta'sirida axloqqa qarshi jinoyatlar sodir etadi.

*Yoshlar (18-30 yosh):* bu guruhda jinoyatchilik ko'p uchraydi, chunki yoshlar ko'pincha o'z mustaqilligini sinab ko'rishga harakat qiladi va jamiyat qoidalarini buzishga moyil bo'ladi.

*O'rta yoshdagi shaxslar (31-49 yosh):* bu yoshdagi jinoyatchilik iqtisodiy yoki oilaviy muammolar tufayli sodir etilishi mumkin.

*Katta yoshdagi shaxslar (50-55 va 60 yoshdan oshgan):* katta yoshdagi shaxslar orasida axloqqa qarshi jinoyatlar kam uchraydi, ammo depressiya yoki yolg'izlik hissi jinoyatga olib kelishi mumkin.

Muallif axloqqa qarshi jinoyatlarni ko'pincha erkaklar sodir etishini ta'kidlaydi. Masalan, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish jinoyatlari erkaklar tomonidan sodir etilishi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, qo'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash jinoyatlarida ayollarning ulush yuqori

ekanaligini ta'kidlab, bu iqtisodiy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin deb ta'kidlaydi.

Dissertatsiyada jinoyatchilarning motivlari, psixologik xususiyatlari va ijtimoiy omillari tahlil qilinadi. Ko'pincha, axloqqa qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar past axloqiy me'yorlarga ega bo'lishi, o'z shaxsiy manfaatlarini boshqalarning huquqlari va qadr-qimmatidan ustun qo'yishini tushuntiradi. Psixologik nuqtai nazardan, bunday shaxslar o'z impulslarini nazorat qila olmaydi, agresiv yoki manipulyativ xulq-atvor namoyon etadi.

Dissertatsiyada axloqqa qarshi jinoyatlarni sodir etuvchi voyaga yetmagan shaxslar to'g'risida ham tahlil qilinadi. Bu yosh guruhidagi jinoyatchilar ko'pincha ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida jinoyat sodir etadi.

Muallif dissertatsiyada axloqqa qarshi jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlari keng tahlil qilgan bo'lib, jinoyatchilikning kelib chiqish omillari, ijtimoiy sharoitlar va psixologik jihatlar atroflicha yoritilgan.

Muallifning dissertatsiyasida jinoyatchilikning sabablari va jinoyatchilikka olib keladigan shart-sharoitlar batafsil yoritilgan. Jinoyatchilik sabablari insonlarning huquqqa zid xatti-harakatlarini tushuntirish uchun muhimdir. Sabablar va sharoitlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, jinoyatchilikni tushuntirishda ko'pincha bir qator omillar hisobga olinadi. Muallif kriminologik determinatsiya tushunchasini keltirib, sababiy va shartlanuvchi bog'lanishlarning ta'sirini yoritadi. Jinoyatchilikni tushunish uchun bu bog'liqliklarni o'rganish muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi ilmiy ishida O.V. Pavlenkning fikriga tayangan holda jinoyatchilik sabablarini uch asosiy manba – sabablar, sharoitlar va omillarga ajratadi: *Sabablar* – jinoyatni to'g'ridan-to'g'ri yuzaga keltiruvchi omillar (insonning ehtiyojlari, manfaatlari va motivlari). *Sharoitlar* – jinoyat sabablarini harakatga keltiruvchi ijtimoiy jarayonlar. *Omillar* – jamiyat hayotida mavjud bo'lgan va jinoyat sabablarini faoliyatga yo'naltiruvchi sharoitlar deb tushuntiradi.

Muallif jinoyatchilik sabablarini aniqlash va tahlil qilish orqali jinoyatchilikka qarshi samarali choralar ishlab chiqish muhimligini ta'kidlaydi. Sabablar o'z-o'zidan oqibatlariga olib keladi va bu oqibatlar muayyan shart-sharoitlar asosida yuzaga keladi deb tushuntiradi.

Dissertatsiyada jinoyatchilik sabablarini tushuntirishda ikki yondashuv keltirilgan:

Tabiat yondashuvi: ba'zi kriminologlar jinoyatchilikni insonning biologik va psixologik xususiyatlariga bog'liq holda tushuntiradi. Yoshlarning miya rivojlanishi va biologik moyilligi, masalan, jahldorlik va empatiya kamligi jinoyatga olib kelishi mumkinligi ko'rsatiladi.

Tarbiya yondashuvi: jinoyatchilikni muhit va sharoitlar bilan bog'liq holda tushuntiradi. Qashshoqlik, bolalikdagi salbiy tajriba, ijtimoiy bosim va noto'g'ri tarbiya jinoyatlarning sababi bo'lishi mumkinligi aytiladi.

Muallif dissertatsiyada axloqqa qarshi jinoyatlarni uch guruhga ajratadi va ularning sabablari va shart-sharoitlarini har bir guruh bo'yicha tahlil qiladi:

1. Voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy erkinligi va daxlsizligiga qaratilgan jinoyatlar: bunday jinoyatlarning kelib chiqishiga jinsiy deviyatsiyalar, ruhiy

kasalliklar, jinsiy axloqning liberallashtirishi va ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siri sabab bo'lishi mumkin.

2. Pornografiya va fohishaxona saqlash bilan bog'liq jinoyatlar: iqtisodiy qiyinchiliklar, qashshoqlik, ta'lim darajasining pastligi va jinsiy axloqning buzilishi bu jinoyatlarning sabablaridan hisoblanadi.

3. Boshqa axloqqa qarshi jinoyatlar: moddiy madaniy meros obyektlarini buzish, inson organlarini savdosi, qabrlarni tahqirlash va hayvonlarga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lish jinoyatlari moliyaviy qiyinchiliklar va ruhiy kasalliklar bilan bog'liq.

